

BANKLARDA XO'JALIK OPERATSIYALARINING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirov Nodirbek Alimboyevich

O'zbekiston Respublikasi

bank-moliya akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13935438>

ARTICLE INFO

Received: 7th October 2024

Accepted: 9th October 2024

Published: 15th October 2024

KEYWORDS

Bank hisobi, xo'jalik operatsiyalar, buxgalteriya hisobi, avtomatlashtirish, hisobot, depozit, lizing, faktoring.

ABSTRACT

Ushbu maqolada banklarda xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'llari, hamda 2010-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasidagi banklarda buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishi, malakali kadrlar soni, ichki nazorat tizimining samaradorligi va hisobotlarni tahlil qilish jarayonlari ko'rib chiqilgan.

Banklar iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati moliyaviy resurslarni boshqarish va taqsimlash bilan bog'liq. Banklarda xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotlar tayyorlash va nazorat qilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunimizda buxgalteriya hisobining ahamiyati juda katta bo'lib, uni quyidagicha tushunishimiz mumkin bo'ladi. Buxgalteriya hisobi bank faoliyatining asosiy qismidir. U bankning moliyaviy holatini, daromad va xarajatlarini, shuningdek, mijozlar bilan hisob-kitoblarni to'g'ri aks ettirishga yordam beradi. Buxgalteriya hisobi orqali banklar o'z faoliyatini samarali boshqarish, risklarni baholash va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mamlakatimizdagi banklarda amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiyalari quyidagilarga bo'linadi:

- Moliya operatsiyalari: depozitlar, kreditlar, investitsiyalar.
- Hisob-kitob operatsiyalari: mijozlar bilan hisob-kitoblar, to'lovlar.
- Xarajat operatsiyalari: ish haqi, xizmatlar, boshqa xarajatlar.
- Har bir operatsiya turining o'ziga xos buxgalteriya hisobini yuritish talab etiladi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Ushbu banklardagi buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'llari nimalardan iborat va ular nimalardan iborat:

1. Avtomatlashtirish. Bunda, banklarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dasturiy ta'minotlar yordamida hisob-kitoblar tez va aniq amalga oshiriladi. Bu esa inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi va vaqtni tejaydi.
2. Malakali Kadrlar. Bunda, buxgalteriya hisobini takomillashtirish uchun malakali kadrlar zarur. Banklar o'z xodimlarini muntazam ravishda o'qitish va malakasini oshirishga e'tibor berishlari kerak. Bu, o'z navbatida, hisob jarayonlarining sifatini oshiradi.
3. Ichki nazorat. Bunda, ichki nazorat tizimini kuchaytirish banklarda buxgalteriya hisobining aniqligini ta'minlaydi. Nazorat jarayonlari orqali xatolar va firibgarliklarni oldini olish mumkin. Banklar ichki audit va nazorat tizimlarini joriy etishlari lozim.

4. Hisobotlarni tahlil qilish. Bunda, hisobotlarni tahlil qilish bankning moliyaviy holatini yaxshilashga yordam beradi. Tahlil natijalari asosida banklar o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishlari va zarur o'zgarishlarni amalga oshirishlari mumkin.

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi, shuningdek bank va uning mijozlarini iqtisodiy manfaatdorligi banklarning xizmat turlari va operatsiyalari sonining doimiy ravishda ortib borishiga turtki bo'lmoqda. Banklarning no'anaviy operatsiyalari shunday operatsiyalardan hisoblanib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- lizing;
- faktoring;
- trust operatsiyalarini kiritish mumkin.

Banklarda lizing operatsiyalari lizing beruvchi, lizingni oluvchi va vositalarni sotuvchilar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Lizing oluvchi lizing shartnomasini tuzish uchun uning asosiy depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

1. lizing buyurtmasi;
2. lizing ob'yektining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning sotuvchisi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
3. lizingning butun davrini ichiga olgan pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;
4. oxirgi hisobot sanasiga tuman (shahar) davlat soliq inspeksiya tomonidan qabul qilingan buxgalterlik balansi (1-shakl), moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl), muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari.

Lizing foiz stavkalari miqdori lizing oluvchi va lizing beruvchi bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra lizing shartnomasida belgilanadi. Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi: Trust operatsiyalari deganda nima tushuniladi?

Trust operatsiyalar – bu bankning o'z mijozlari topshiriqlariga asosan ularning mulklari va moliyaviy resurslarini boshqarish bilan bog'liq operatsiyalari hisoblanadi. Bank mijozlarning mulklarini o'zaro tuzilgan shartnoma yokivasiyatnomalar asosida amalga oshiradi.

Banklar trust operatsiyalarini amalga oshirish uchun maxsus bo'limlar tashkil etilishi mumkin, ushbu bo'limlar mijozlarning topshiriqlariga asosan ularning qimmatbaho buyumlari va qimmatbaho qog'ozlarni saqlash, moliyaviy resurslarini boshqarish va boshqashukabi operatsiyalarini amalga oshiradi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimiz tijorat banklarida quyidagi depozit operatsiyalari bajarilib kelinmoqda:

- talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bilan operatsiyalar;
- jamg'arma depozitlar bilan operatsiyalar;
- muddatli depozitlar bilan operatsiyalar.


Tijorat banklari jamg'arma, muddatli va jamg'arma sertifikatlar bo'yicha foiz to'lovlarini to'laydilar, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha ko'pchilik hollarda foizlar to'lamaydi.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarini "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartib to'g'risida"gi yo'riqnoma asosida

amalga oshiradi. (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2010 yil 31 dekabrda 42/1-son qarori bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 4 martda 2205-son bilan ro'yxatga olingan).¹

Banklarda xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish jarayoni murakkab va ko'p jihatli. Avtomatlashtirish, malakali kadrlar, ichki nazorat va hisobotlarni tahlil qilish orqali banklar o'z faoliyatini samarali boshqarishlari mumkin. Bu esa nafaqat bankning moliyaviy holatini yaxshilaydi, balki mijozlar ishonchini ham oshiradi. Banklar bu jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishlari zarur.

Quyidagi diagrammalarda banklarda xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish jarayonida olingan ma'lumotlar keltirilgan. Diagrammalarda 2010, 2015, 2020, 2021, 2022 va 2023 yillarda banklarda buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishi, malakali kadrlar soni, ichki nazorat tizimining samaradorligi va hisobotlarni tahlil qilish jarayonlari ko'rsatilgan.




1-diagramma. O'zbekistondagi banklarning avtomatlashtirish darajasi (%)²

Xususan, 1-diagrammada O'zbekiston Respublikasidagi banklarning avtomatlashtirish darajasi (%) hisobida berilgan. Unga ko'ra, 2010 yildan 2023 yilgacha avtomatlashtirish darajasi 30% dan 85% gacha oshgan. Bu jarayon banklarda hisob-kitoblarni tezlashtirish va xatolarni kamaytirish imkonini berdi. Avtomatlashtirishning oshishi banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirdi.


¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2010 yil 31 dekabrda 42/1-son qarori

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2-diagramma. O'zbekiston Respublikasi banklaridagi malakali kadrlar (%)³

2-diagramma ma'lumotlariga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi banklaridagi malakali kadrlar (%) hisobidagi ma'lumotlar berilgan. Unga ko'ra, malakali kadrlar soni 2010 yilda 40% dan 2023 yilga kelib 90% gacha oshgan. Bu, banklar o'z xodimlarini o'qitish va malakasini oshirishga e'tibor berayotganini ko'rsatadi. Malakali kadrlar bank faoliyatining sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.



3-diagramma. O'zbekiston Respublikasi banklaridagi ichki nazorat samaradorligi (%)⁴

Yuqoridagi 3-diagramma ma'lumotlariga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi banklaridagi ichki nazorat samaradorligi (%) hisobidagi ma'lumotlar berilgan. Unga ko'ra esa, ichki nazorat

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

tizimining samaradorligi 2010 yilda 25% dan 2023 yilga kelib 75% gacha oshgan. Bu, banklar ichki nazoratni kuchaytirish va firibgarliklarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirayotganini ko'rsatadi.

Hisobotlarni tahlil qilish jarayoni esa 2010 yilda 20% dan 2023 yilga kelib 70% gacha oshgan. Bu, banklar o'z moliyaviy holatini yaxshilash va strategik qarorlar qabul qilishda tahlil natijalaridan foydalanayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarimizni keltirib o'tmoqchimiz. Diagramma va tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, banklarda xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish jarayoni davom etmoqda. Avtomatlashtirish, malakali kadrlar, ichki nazorat va hisobotlarni tahlil qilish jarayonlari banklarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu jarayonlarni yanada rivojlantirish banklar uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2010 yil 31 dekabrda 42/1-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid hujjatlari to'plami. -T.: «O'zbekiston», 2011.
5. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi.(To'ldirilgan ikkinchi nashri) -T.: «O'zbekiston», 2011.
6. Stat.uz ma'lumotlari.
7. www.lex.uz ma'lumotlari.

INNOVATIVE
ACADEMY